



SPIRITUALITY AS THE FOUNDATION OF HUMAN DEVELOPMENT AND THE BASIS OF SOCIAL PROGRESS

Sarvinoz Risaliyeva

*Student of the National Idea, Foundations of Spirituality and Legal Education program
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: spirituality, enlightenment, neighborhood, society, family, values, school, ethics, method, reading, concept.	Abstract: This article discusses and analyzes the concept of spirituality, its basis for human perfection and the foundation of social development.
--	---

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

MA'NAVIYAT – INSON KAMOLOTINING ASOSI VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING POYDEVORI

Sarvinoz Risaliyeva

*Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, mahalla, jamiyat, oila, qadriyat, maktab, axloq, metod, kitobxonlik, konsepsiya.	Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviyat tushunchasi, uning inson kamolotining asosi va jamiyat taraqqiyotining poydevori haqida fikr-mulohalar yuritilgan va tahlil qilingan.
---	--

ДУХОВНОСТЬ — ОСНОВА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ И ФУНДАМЕНТ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Сарвиноз Рисалиева

*Студентка направления «Национальная идея, основы духовности и правовое образование»
Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	духовность, просветление, окрестности, общество, семья, ценности, школа, этика, метод, чтение, концепция.	Аннотация:	В данной статье рассматривается и анализируется концепция духовности, её основа для совершенствования человека и фундамент социального развития.
------------------------	---	-------------------	--

Kirish. Inson hayoti faqat moddiy ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas. Agar inson faqat yeyish, ichish va yashash bilan chegaralansa, uning boshqa mavjudotlardan farqi qolmaydi. Insonni inson qilib turadigan, uni ulug'laydigan va jamiyatda hurmatga sazovor etadigan asosiy kuch – bu ma'naviyatdir. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, ruhiy olami, axloqiy qarashlari va hayotiy mezonlarini belgilab beradi. Bugungi kunda dunyo jadal sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Texnologiyalar rivojlanmoqda, axborot oqimi kuchaymoqda, turli madaniyatlar o'zaro aralashmoqda. Bunday sharoitda insonning ichki mustahkamligi, ya'ni ma'naviyati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tashqi ta'sirlar qanchalik kuchli bo'lmasin, ichki e'tiqodi mustahkam inson o'z yo'lidan adashmaydi. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir. Ma'naviy jihatdan yetuk jamiyatda adolat, halollik va o'zaro hurmat ustuvor bo'ladi. Aksincha, ma'naviy qadriyatlar zaiflashgan jamiyatda beparvolik, loqaydlik va adolatsizlik kuchayadi. Shu bois ma'naviyat masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Muhokama va natijalar. Ma'naviyat tushunchasining mazmuni va mohiyati avvalo biz bilmog'imiz kerak. Ma'naviyat – keng qamrovli tushuncha. U faqat axloq yoki odob bilan cheklanmaydi. Ma'naviyat insonning butun ruhiy dunyosini o'z ichiga oladi. Unga quyidagilar kiradi: Axloqiy fazilatlar, Vijdon va e'tiqod, Tafakkur va dunyoqarash, Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Ruhiy poklik va komillikka intilish [1]. Ma'naviyat insonning ichki mezoni hisoblanadi. Qonun tashqi tartibni saqlasa, ma'naviyat ichki tartibni ta'minlaydi. Inson yolg'iz qolganida ham noto'g'ri ish qilmasligi – bu uning ma'naviyati kuchli ekanidan dalolat beradi. Ma'naviyat shaxsiy va ijtimoiy darajada namoyon bo'ladi. Shaxs ma'naviyati uning xulq-atvorida, gap-so'zida, boshqalarga munosabatida ko'rinadi. Ijtimoiy ma'naviyat esa jamiyatning umumiy madaniy saviyasi, qadriyatlari va urf-odatlarida aks etadi. Ma'naviyat insonni yuksaltiradi. U sabrli bo'lishga, kechirimli bo'lishga, boshqalarga yaxshilik qilishga undaydi. Ma'naviy boylikka ega inson o'z manfaatidan ko'ra jamiyat manfaatini ustun qo'ya oladi.

Ma'naviyat turli-xil jarayonlar bilan bog'liq, buni quyidagi misollar orqali tushuntirmoqchiman: Tarixiy meros va ma'naviy qadriyatlar Har bir millatning ma'naviy qiyofasi uning tarixida aks etadi. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy, adabiy va axloqiy meros bugungi kun uchun ham bebaho boylikdir. Ular o'z asarlarida inson komilligi, halollik, adolat va mehr-

oqibat haqida chuqur fikrlar bildirganlar. O'tmish allomalari ilm va axloqni bir-biridan ajratmaganlar. Ularning fikricha, bilim ma'naviyat bilan uyg'un bo'lsagina insonni haqiqiy kamolotga yetkazadi. Ilmsiz ma'naviyat zaif, ma'naviyatsiz ilm esa xavfli bo'lishi mumkin. Tarixiy meros yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Ajdodlar hayoti va faoliyatini o'rganish insonda milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytiradi. O'z tarixini bilgan inson kelajakka ishonch bilan qadam qo'yadi.

Shuningdek, oila – ma'naviyat beshigi hisoblanadi. Ya'niki, inson ma'naviyati avvalo oilada shakllanadi. Bola ko'zini ochganidan boshlab ota-onasining muomalasini, gap-so'zini, xatti-harakatini kuzatadi. Oila – bu birinchi tarbiya maktabidir [2]. Agar oilada hurmat, mehr, halollik va samimiyat hukm sursa, bola ham shu muhitda tarbiyalanadi. Aksincha, janjal, beparvolik va e'tiborsizlik hukmron bo'lgan oilada ulg'aygan farzandning ma'naviyati zaiflashishi mumkin. Ota-onaning eng katta vazifasi – farzandga yaxshi tarbiya berishdir. Moddiy boylik vaqtinchalik, ammo yaxshi tarbiya umr bo'yi inson bilan birga bo'ladi. Ota-onaning shaxsiy namunasidan kuchliroq tarbiya vositasi yo'q. Oilada quyidagi qadriyatlar singdirilishi muhim: kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehnatsevarlik, mas'uliyat, rostgo'ylik kabi fazilatlar jamiyatda sog'lom muhitni shakllantiradi.

Ta'lim tizimi va ma'naviy tarbiyayaga ta'rif esa quyidagicha beriladi. Ta'lim inson hayotida muhim o'rin tutadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalari yoshlarning nafaqat bilimini, balki ma'naviyatini ham shakllantiradi. Haqiqiy ta'lim insonni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida yoshlar quyidagi fazilatlarni egallashi zarur: vatanparvarlik, tanqidiy tafakkur, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, qonunlarga itoatkorlik, ijtimoiy mas'uliyat. Bilim va ma'naviyat uyg'unlashganda jamiyat taraqqiyoti barqaror bo'ladi. Agar inson faqat bilimli bo'lib, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmasa, u o'z bilimidan noto'g'ri foydalanishi mumkin. Shuning uchun ham tarbiya va ta'lim bir-biridan ajralmas jarayondir.

Globallashuv davrida ma'naviy tahdidlar esa bugungi globallashuv jarayonida turli g'oyalar, qarashlar va madaniyatlar tez tarqalmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali har xil axborotlar yoshlar ongiga kirib bormoqda. Bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham mavjud. Ma'naviy tahdidlarga quyidagilar kiradi: zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi materiallar, axloqsizlikni odatiy hol sifatida ko'rsatish, yengil hayotni targ'ib qilish, giyohvandlik va zararli odatlarning yoyilishi. Bunday tahdidlarga qarshi kurashishning eng samarali yo'li – bu mustahkam ma'naviyatdir. Ma'naviy yetuk inson har qanday axborotni tanqidiy tahlil qiladi va zararli ta'sirlarga berilmaydi.

Ma'naviyat va vatanparvarlik bu ma'naviyatli inson o'z Vatanini sevadi va uning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Vatanparvarlik shunchaki shior emas, balki kundalik mas'uliyatdir. O'z ishini halol bajarish, jamiyat mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, qonunlarga rioya qilish – bularning barchasi vatanparvarlikning ko'rinishidir. O'z yurtini sevgan inson uning tinchligi va farovonligi uchun qayg'uradi. U jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaydi. Chunki u o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb biladi. Ma'naviyat va iqtisodiy taraqqiyot. Ko'pchilik ma'naviyatni faqat axloq bilan bog'laydi. Aslida esa iqtisodiy taraqqiyot ham ma'naviyat bilan chambarchas bog'liq. Halollik, intizom, mas'uliyat va mehnatsevarlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridir. Korrupsiya, firibgarlik va beparvolik – ma'naviy inqiroz natijasidir. Agar jamiyatda vijdon va adolat ustuvor bo'lsa, iqtisodiy tizim ham sog'lom ishlaydi. Ma'naviy qadriyatlar mustahkam bo'lgan jamiyatda ishonch muhiti shakllanadi. Ishonch esa har qanday taraqqiyotning asosidir [3].

Demak, yoshlar – kelajak bunyodkorlari Yoshlar jamiyatning eng faol qatlamidir. Ularning qanday ruhda tarbiyalanishi kelajakni belgilaydi. Yoshlar ongida mustaqil fikrlash, milliy g'urur va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish muhimdir. Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish, sport bilan shug'ullanish, kitob o'qish va ijodiy faoliyat bilan band bo'lish yoshlarning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Yoshlar o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga intilsa, jamiyat ham rivojlanadi. Ma'naviyatning kundalik hayotdagi namoyon bo'lishi avvalo Ma'naviyat balandparvoz gaplarda emas, oddiy hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Masalan: navbatda tartib saqlash, ko'chani toza tutish, yolg'on gapirmaslik, va'daga vafo qilish, muhtojlarga yordam berish. Shu oddiy harakatlar jamiyat madaniyatini belgilaydi. Ma'naviyat kundalik hayot tarziga aylangandagina u haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, ma'naviyat – inson kamolotining asosi, jamiyat taraqqiyotining poydevori va millat kelajagining kafolatidir. U insonni halol, sabrli, mas'uliyatli va vatanparvar shaxsga aylantiradi. Moddiy boylik vaqtinchalik, ma'naviy boylik esa abadiydir. Ma'naviy yetuk jamiyatda tinchlik, adolat va farovonlik hukm suradi. Har bir inson o'z qalbini poklashdan boshlasa, jamiyat ham poklanadi. Shunday ekan, ma'naviyatni asrash, uni boyitish va kelgusi avlodga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, bugungi ma'naviyatimiz – ertangi kelajagimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 19-21- b.
2. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi (PF-60-son 28.01.2022) <https://lex.uz/docs/-5841063>.

3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yil. 1059-son.